

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING AXOLI O'RTASIDA HUQUQIY TARG'IBOT FAOLIYATINI TAKOLMILLASHTIRISH

Mirxalilova Gulnoza Ilxomjon qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o'qituvchisi, yu.f.b.f.d., kapitan

Bekmurodov Nizombek Erkin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti, safdor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14550690>

Aholining huquqiy madaniyati va ongini oshirish, shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmatini va mol mulkini turli tajovuzlardan himoya qilishda markaziy militsiya tayanch punktlarining o'zni muhim ahamiyatga egadir. Fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini, ularning xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlarining quyi tizimi hisoblangan ya'ni, militsiya tayanch punktlarida xizmat faoliyatini olib boruvchi profilaktika inspektorlarining xalqqa yaqinligi va ular doimiy ravishda odamlar orasida bo'lishi huquqbuzarliklarning oldini olishda o'z samarasini bermogda.

Umumiy profilaktik faoliyat1-huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo'yicha faoliyati hisoblanadi. Ichki ishlar organlarining umumiy profilaktik faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari mazmuni bo'yicha iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, demografik, huquqiy, tashkiliy-boshqaruv, ma'naviy-ma'rifiy va boshqalardan iborat.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida «Jaholatga qarshi ma'rifat» ezgu g'oyasi asosida har bir mahalla kesimida diniy-ekstremistik xususiyatga ega bo'lgan huquqbuzarliklarni sodir etish sabab va shart-sharoitlarini barvaqt aniqlash va bartaraf etishga, birinchi navbatda, ekstremistik oqim mafkurasi ta'siri ostiga tushib qolgan shaxslarni tuzatishga alohida e'tibor qaratish kabi ustuvor yo'nalishlari ijrosini ta'minlashda profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi doirasida faoliyatini tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Davlat, uning tegishli organlari jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun, eng muhimi, insonning muqaddas huquqi – yashash huquqini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish uchun tashkil etilgani shubhasiz.

Profilaktika xizmatlarining umumiy profilaktik faoliyati jamiyatga zid g'ayriijtimoiy hodisa va jarayonlarning, turli voqea, hodisa va holatlarni aniqlash va ularni bartaraf etish, ta'sir etish, kuchsizlantirish va oldini olishga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-huquqiy vositalar orqali amalga oshiriladigan faoliyatidir.

O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunida huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniymanfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;
- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash;
- huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;
- huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish;–

jismoniy shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish;

–huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar faoliyatining o‘zaro hamkorligini ta‘minlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish.

Profilaktika inspektori huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi doirasida aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot borasidagi ishlarini bevosita militsiya tayanch punktlari negizida amalga oshiradi. Darhaqiqat, militsiya tayanch punktlari yoshlarning bo‘sh vaqtlarini o‘tkazadigan, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishni samarali tashkil etadigan maskan bo‘lishligi, shuningdek yoshlar o‘rtasida tashkiliy-tarbiyaviy, ommaviy-sport ishlarini rivojlantirishni ta‘minlashga xizmat qiladi. Hususan, huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasining ob‘ekti –keng jamoatchilikdir. Hususan, mahalla aholisi, mehnat jamoalari (korxona, muassasa, tashkilotlar xodimlari), voyaga yetmaganlar jamoasi (maktab, kollej vava akademik litseyilar), yoshlar jamoasi va boshqalar. Umumiy profilaktik tadbirlarning amalga oshirilishi jarayonida barchaga bir hil ravishda yetkazib berilishi bilan ajralib turadi. Ilmiy adabiyotlarda huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasining ikkita yo‘nalishi mavjudligi ko‘rsatilgan, birinchidan, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan tadbirlar tashkil qiladi. Ushbu tadbirlarning xususiyati shundaki, ular bevosita profilaktik samara bermaydi. Shunga qaramay, ushbu usullarning huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatining pirovard maksadlariga erishishdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rmaslik xato bo‘ladi. Chunki bu jarayonda hududdagi yoki ma‘lum bir guruhlar o‘rtasidagi muammolar, nizolar va huquqbuzarliklarning umumiy ko‘rinishi tahlil etiladi; ikkinchidan, huquqbuzarliklar profilaktikasining chora-tadbirlari to‘g‘ridan to‘g‘ri amalga oshirish kiradi³, masalan fuqarolar bilan uchrashuvlar tashkil etish, ma‘ruzalar o‘qish, targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish va amalga oshirish kabilar. Profilaktika(katta) inspektorlari huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi doirasida o‘zining ma‘muriy hududida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga yo‘naltirilgan uchrashuvlarni tashkil etishning asosiy usullari sifatida keng jamoatchilik o‘rtasida (mahallalarda, o‘quv yurtlarida, korxona, muassasa, tashkilotlarda) suhbatlar va mutaxassislar ishtirokida uchrashuvlar uyushtirish, turli mavzularda ma‘ruzalar o‘qish, aholi orasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini oldini olish maqsadida turlisport musobaqalarini tashkil etish, yoshlar tashkilotlari bilan birgalikda televiktorinalar o‘tkazish, ommaviy axborot vositalaridan foydalanib aholiga alohida jinoyatlarning salbiy oqibatlari borasida tushuntirish ishlarini olib borish, shuningdek fuqarolarning ma‘naviy va axloqiy hamda huquqiy tarbiyalashga qaratilgan boshqa turdagi tadbirlarni amalga oshirish kabilarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Shu sababli bugungi kunda huquqiy tarbiyot ishlarini amalga oshirishda faol ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy hamda akauntlardan foydalanish, xar bir davlat tashkilot va muassasalar ham o‘zlarining kuzatuvchiga yega bo‘lgan rasmiy sahifalarini yuritib borishlari, ularning ommalashuviga ko‘proq e‘tibor qaratishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi 2023-yil
2. Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonun 2016-yil 16-sentyabr

3. Huquqbuzarliklarprofilaktikasi to'g'risidagi qonun 2014-yil 14 may
4. 2021-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
5. 2022-yil 18-may kuni "O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi to'g'risida"gi qonuni